

## FIZIKA FANINI O'QITISHDA MASALALAR YECHISHNING O'RNI.

**Kukonboyev Baxodir Muqimovich**

Farg'ona viloyati, Furqat tumani kasb-hunar maktabi fizika fani o'qituvchisi

**Raxmonova Iqbolxon Mo'minovna**

Farg'ona viloyati, Furqat tumani kasb-hunar maktabi fizika fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada fizikaning elektr bo'limiga doir masalalar yechish namunalari keltirib o'tilgan.

**Kalt so'zlar:** ta'lif, fizika, masala yechish, quvvat, tok kuchi, kuchlanish, qarshilik.

**Abstract:** The article gives examples of solving problems related to the electrical department of physics.

**Keywords:** education, physics, problem solving, power, current, voltage, electrical resistance.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab rivojlangan davlatlar darajasiga yetish uchun Respublikamizda barcha sohalarda islohotlar ketmoqda. Ta'limgagi islohotlar bir vaqtning o'zida maktabgacha, boshlang'ich, professional ta'lif va oliy ta'lif orasidagi uzluksizlikni ta'minlagan holda amalga oshirilmoqda. Ayrim fan sohalarida ta'lif sifatini oshirish yuzasidan qarorlar qabul qilinmoqda. Jumladan 19.03.2021 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fizika sohasidagi ta'lif sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-5032 qarori bunga yaqqol misoldir [1].

Ma'lumki, fizika o'qitishda nazariy va amaliy metodlar mavjud. Amaliy metodlar ichida fizikadan masalalar yechishning ahamiyati salmoqlidir. Masala yechish

jarayonida o‘quvchilarga bilim berish bilan birga o‘quvchilar qobiliyatlarini rivojlantirish, ularga tarbiya berish kabi muhim masalalar hal qilinadi. Fizikadan masalalar yechish jarayonida o‘quvchilarining mantiqiy fikrlashlari kengayadi, ijodiy qobiliyatları rivojlanadi. Fizik hodisalarining tub mohiyatini kengroq tushunadilar, qonunlarning amalda qo‘llanilishini chuqurroq anglaydilar. Ko‘pgina fizik o‘lchov asboblarining vazifasi, tuzilishi, ishlash prinsiplari bilan tanishadilar, ular bilan ishlash ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladilar. Shuningdek, masalalar o‘quvchilarda mehnatsevarlik, jur’atlilik, iroda va xarakterni tarbiyalaydi [2].

Quyida elektr bo‘limiga oid masalalar yechishga namunalar keltirib o‘tamiz:

**1-masala.** 127 V kuchlanishga mo‘ljallangan radiopryomnik P=50 W istemol qiladi. Shu radiopryomnikni 220 V kuchlanishga ega bo‘lgan tarmoqqa qancha qo‘sishma qarshilik bilan ketma-ket ulash kerak? Javob: 236,2 Om.

**Berilgan:**

$$\begin{array}{l} U = 127V \\ P = 50W \\ U_t = 220V \\ \hline R_q = ? \end{array}$$

**Yechilishi:** Zanjir ketma-ket ulanganda undagi tok kuchlari teng bo‘lishi bizga m’lum. 1-holatda radiopriyomnikdagi tok kuchini uning iste’mol qiladigan quvvati orqali ifodalaymiz  $I = \frac{P}{U}$  (1). 2-holatda esa radiopriyomnik ma’lum kuchlanshli tarmoqqa ulanadi  $I = \frac{U_t}{R + R_q}$  (2). (1) va (2) ifodalarni bir-biriga tenglaymiz  $\frac{P}{U} = \frac{U_t}{R + R_q}$

(3), bu yerda R radiopriyomnikning qarshiligi  $R = \frac{U^2}{P}$  (4) ga teng. (4) ifodani (3) ifodaga

olib boramiz  $\frac{P}{U} = \frac{U_t}{\frac{U^2}{P} + R_q}$  (5), hosil bo‘lgan ifodadan  $R_q$  ni topamiz  $R_q = \frac{U(U_t - U)}{P}$  (6)

natijaviy formulaga ega bo‘lamiz.

$$\text{Hisoblash: } R_q = \frac{127V * (220V - 127V)}{50W} = 236,22\Omega$$

**Javob:**  $R_q = 236,22\Omega$ .

**2-masala** Massasi 1 tonna bo‘lgan lift minutiga  $h = 80$  m balandlikka ko‘tariladi. Motor klemmalaridagi kuchlanish 127 V, FIK 90% bo‘lgan motor iste’mol qiladigan quvvatni toping. Javob:  $10^4$ Vt.

**Berilgan:**

$$\begin{aligned} m &= 1t = 1000kg \\ t &= 1min = 60s \\ h &= 80m \\ \hline U &= 127V \\ \eta &= 90\% \\ P &=? \end{aligned}$$

**Yechilishi:** Bizga ma’lumki, qurilmalarning foydali ish koeffitsiyenti  $\eta = \frac{A_f}{A_u} 100\%$

(1) ga teng. Bu yerda qurilmaning foydali ishi liftni yuqoriga ko‘tarishda og‘irlik kuchi bajargan ishdir  $A_f = mgh$  (2). Umumiyligi esa motor iste’mol qiladigan quvvat hisobiga bajarilgan ishga teng  $A_u = Pt$  (3). (2) va (3) ifodalarni (1) ifodaga qo‘yamiz  $\eta = \frac{mgh}{Pt} 100\%$  (4), hosil bo‘lgan ifodadan iste’mol qilingan quvvatni aniqlaymiz

$$P = \frac{mgh}{\eta t} 100\% \quad (5).$$

$$\textbf{Hisoblash: } P = \frac{1000kg * 9,8m/s^2 * 80m}{90\% * 60s} * 100\% \approx 14518W = 14,5kW$$

**Javob:**  $P = 14,5kW$ .

**3-masala** Qo‘rg‘oshinli akkumlyatorning elektr yurituvchi kuchi  $\varepsilon = 2,2V$  tashqi qarshilik  $R = 0,50$  m, sxemaning f.i.k.  $\eta = 65\%$  bo‘lsa, tok kuchini toping.

**Berilgan:**

$$\begin{aligned} \varepsilon &= 2,2V \\ R &= 0,5\Omega \\ \eta &= 65\% \\ \hline I &=? \end{aligned}$$

**Yechilishi:** Bizga ma'lumki, tok manbaining foydali ish koeffitsiyenti  $\eta = \frac{A_f}{A_u} 100\%$  (1) ga teng. Bu yerda qurilmaning foydali ishi  $A_f = UIt$  (2). Umumiyl ish esa  $A_u = \varepsilon It$  (3). (2) va (3) ifodalarni (1) ifodaga qo'yamiz  $\eta = \frac{U}{\varepsilon} 100\%$  (4). Zanjirning bir qismi uchun Om qonunidan foydalansak  $U = IR$  (5). (5) ifodani (4) ifodaga olib kelamiz  $\eta = \frac{IR}{\varepsilon} 100\%$  (6), hosil bo'lgan ifodadan tok kuchini aniqlaymiz  $I = \frac{\eta \varepsilon}{100\% R}$  (7).

$$\textbf{Hisoblash: } I = \frac{65\% * 2,2V}{100\% * 0,5\Omega} = 2,86A$$

**Javob:**  $I = 2,86A$ .

O'quvchilarning fizikadan olgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini oshirish muammolari, o'qitishda ustaqil ishlarini tashkil etish, amaliy masalalarni yechish usullarini takomillashtirish orqali hal etiladi. Fizik masalalarni yechish orqali o'quvchilar fizik hodisalarini chuqurroq va to'liqroq tushunishga, nazariy materialni yaxshi o'rghanishga yordam beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Физика соҳасидаги таълим сифатини ошириш ва илмий тадқиқотларни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида" 19.03.2021йилдаги ПК-5032-сон қарори.
- 2.T.Rizayev, B.Nurillayev, G.Usmanova Fizikadan masalalar yechish metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent., -2007.
- 3.Sh.R.Qo'qonboyeva, Formation of professional competence of future physics teachers through independent education., "Academicia An International Multidisciplinary Research journal" India, Vol 12, Issue 05, May 2022.-P 1202-1205.